
“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=346

2026-yil
1-son
yanvar
ISSN 3093-8546



Raqamli davrda korrupsiya va uning sport sohasiga ta’siri

Karimjon Musashayxov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: k.musashayxov@gmail.com

Аннотация. Mazkur ilmiy maqolada raqamli texnologiya vositalarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi o‘rni, blokcheyn texnologiyasi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va elektron audit kabi yondashuvlarning afzalliklari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Axborat asrida raqamli texnologiyalar taraqqiyoti korrupsion jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani, ayniqsa sport sohasida u qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘layotgani chuqur tahlil qilinadi. Xususan, sportdagi korrupsiyaning shakllari kelishilgan o‘yinlar, hakamlar va sport sohasidagi mansabdor shaxslarga pora berish, sport klublari orqali pul yuvish, davlat mablag‘larini noqonuniy yo‘naltirish kabi muammolar ochib beriladi.

Калит сўзлар. korrupsiya, poraxo‘rlik, Big data, sport boshqaruvi, raqamli texnologiyalar, blokcheyn, sun’iy intellekt, kelishilgan o‘yinlar

Аннотация. В данной научной статье анализируется роль инструментов цифровых технологий в борьбе с коррупцией, преимущества и практические возможности таких подходов, как технология блокчейн, искусственный интеллект, большие данные (Big Data) и электронный аудит. Глубоко анализируется, как развитие цифровых технологий в информационную эпоху влияет на коррупционные процессы, особенно в спортивной сфере. В частности, раскрываются такие проблемы, как формы коррупции - договорные матчи, подкуп судей и спортивных чиновников, отмывание денег через спортивные клубы, незаконное отвлечение государственных средств.

Ключевые слова. коррупция, взяточничество, Большие данные, спортивный менеджмент, цифровые технологии, блокчейн, искусственный интеллект, договорные матчи

Annotation. This scientific article analyzes the role of digital technology tools in the fight against corruption, the advantages and practical possibilities of approaches such as blockchain technology, artificial intelligence, big data (Big Data) and electronic audit. It deeply analyzes how the development of digital technologies in the information age affects corruption processes, especially in the sports sector. In particular, it reveals problems such as forms of

corruption - match-fixing, bribery of referees and sports officials, money laundering through sports clubs, and illegal diversion of state funds.

Keywords. corruption, bribery, Big data, sports management, digital technologies, blockchain, artificial intelligence, match-fixing

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insoniyat hayotining barcha jabhalariga jadal ravishda kirib kelmoqda. Xususan, elektron hukumat, raqamli xizmatlar, davlat xaridlari va ma'lumotlar bazalari orqali insonlar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tez, samarali va shaffof tarzda amalga oshirilmoqda.

Biroq, mazkur imkoniyatlar bilan birgalikda, ko'plab sohalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ham ortib bormoqda.

Bu esa axborot dasturiy ta'minotlarida davlat mablag'larini o'zlashtirish, soxta tenderlar tashkil etish, pora olish va pora berish kabi jinoyatlar orqali axborot kommunikatsiya tizimida korrupsiyaning yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda.

Shu boisdan, bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari ikki qirrali qurol, ya'ni ular bir tomondan korrupsiyaga qarshi samarali vosita bo'lsa, boshqa tomondan – yangi jinoyat shakllarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ilmiy nuqtai nazardan olimlar ham bu borada qator o'z fikrlarini ilgari surishganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, olimlardan S. Saidovning fikricha, "Raqamli korrupsiya – an'anaviy korrupsiyaning yangi bosqichi bo'lib, u axborot tizimlaridagi shaffoflik yetishmasligi va axborot muhitining himoyasizligi bilan bog'liqdir"[1].

Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida esa, "raqamli davlat xizmatlari korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy vositaga aylangan bo'lsada, yetarli darajada shaffof va aniq algoritmlarsiz bu xizmatlar o'zi korrupsiya manbai bo'lib qolishi mumkin"ligi[2] ta'kidlangan.

Albatta, bugungi kunda global raqamli o'zgarishlar sharoitida korrupsiya masalasi nafaqat iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka, balki sport kabi ijtimoiy sohalarga ham jiddiy tahdid solmoqda. Korrupsiya sportda nafaqat moliyaviy zarar yetkazadi, balki halollik, adolat va raqobat tamoyillarini buzadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi zamonda sport sohasida ham korrupsiyaning yangi ko'rinishlari kasb etmoqda.

Qayd etish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev lavozimiga kirishgan ilk kunlardanoq korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. U rahbarlik qilayotgan davrda barcha sohalarda korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi tizimli kurashish va bu boradagi huquqiy bazani mustahkamlash bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentimiz o'zining ko'plab nutqlarida bir necha bor korrupsiyani "Davlatni yemiruvchi eng xavfli illat", "Korrupsiyaga qarshi butun jamoatchilik bilan kurashishimiz zarur", "Korrupsiya illati xatto eng qudratli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgan"[3], – deb bejizga ta'kidlamagan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur islohotlar yo‘lidagi eng muhim huquqiy asos bo‘lib, unda “korrupsiya – bu shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”dir deb qayd etilgan.

So‘nggi yillarda mazkur Qonunning samarali ijrosini ta’minlash, shuningdek, korrupsiyaning barcha ijtimoiy hayot sohalarida ildiz otishining oldini olish maqsadida 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etuvchi tashkilotlar va idoralar o‘rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishga, korrupsiyaviy xavflarni baholash va ularga qarshi tegishli choralarni ishlab chiqishga, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur hujjatlar O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning nafaqat umumiy tamoyillarini belgilab berdi, balki barcha sohalarga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, axborotlar ochiqligini ta’minlash va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini kengaytirish kabi zamonaviy mexanizmlarni ham bosqichma-bosqich joriy qilishga zamin yaratmoqda.

Aynan shunday yondashuvlarni xorijiy davlatlar tajribasida ham kuzatish mumkin. Masalan, Estoniya va Singapurda so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash raqamli boshqaruv va sun’iy intellekt vositalari asosida tashkil etilmoqda. Buyuk Britaniyada esa boshqa sohalar qatori sport sohasida ham korrupsiya holatlarini aniqlashda blokcheyn va moliyaviy monitoring tizimlaridan foydalanilmoqda[4]. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani faqat jazolar bilan emas, balki oldini olishga yo‘naltirilgan ilg‘or texnologiyalar va ochiq boshqaruv tamoyillari bilan yengish mumkindir.

Ta’kidlash joizki, sport insoniyat tarixida qadimdan jismoniy salohiyat, ruhiy bardoshlik va axloqiy halollik mezoni sifatida qadrlanib kelingan. Biroq, bu sohaning keng ommaga e’tiborli, moliyaviy jihatdan jozibador va siyosiy ta’sirga ega bo‘lishi uni korrupsiya uchun qulay maydonga aylantirib qo‘ydi.

Sportdagi korrupsiya - bu sport bilan bog‘liq har qanday faoliyatda adolat va qonuniylik tamoyillarini buzgan holda shaxsiy yoki guruhiy manfaat ko‘zlab amalga oshiriladigan noqonuniy harakatlardir.

Sportda korrupsiyaning ilk holatlari qadimgi Rim va Yunoniston davrlarida ham uchragan. Ba’zi tarixiy manbalarda Olimpiya o‘yinlari davomida sportchilar yoki hakamlarning pora olayotgani haqida qaydlar ham yozilgan. Yangi tarixda esa XX asrning o‘rtalaridan boshlab sport, ayniqsa professional sport tarmoqlari (futbol, beysbol, boks) iqtisodiy daromad manbai sifatida shakllanib,

korrupsiya xavfi keskin oshdi.

Sportdagi korrupsiyani o‘rgangan mashhur olimlar orasida Alan Tomlinson va Deklan Hill kabilar alohida o‘rin tutadi. A.Tomlinson o‘z ilmiy izlanishlarida sport va siyosat o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikni ochib beradi, D. Hill esa “kelishilgan o‘yinlar” va xalqaro garov tizimlarining korrupsiyaga ta’sirini chuqur o‘rganadi. Ushbu olimlarning fikriga ko‘ra, “sportdagi korrupsiya – bu faqat ahloqiy muammo emas, balki global iqtisodiy jinoyat tarmog‘ining bir qismidir”[5].

Ko‘plab olimlar sportdagi korrupsiyani ikki turga ajratadi, ya’ni birinchisi ma’muriy (boshqaruvdagi) – sport tashkilotlari, federatsiyalar, Olimpiya qo‘mitalarida lavozimlarni noqonuniy egallash, byudjet mablag‘larini o‘zlashtirish bo‘lsa, ikkinchisi musobaqa jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yin natijalarini manipulyasiya qilish, hakamga ta’sir ko‘rsatish, garovlar orqali natijani sotib olishdir.

O‘rganishlardan kelib chiqib, bugungi kunda jahon miqyosida sportda korrupsiyaning quyidagi asosiy shakllari uchrayotganligini ko‘rish mumkin:

1. Kelishilgan o‘yinlar – sport musobaqasining natijasi oldindan kelishib olinadi, odatda garov tikish tarmoqlari orqali foyda ko‘riladi. Hozirda bu sohada eng keng tarqalgan va xavfli shakllardan biri hisoblanadi.

2. Pora olish va berish – hakamlar, sportchilar yoki tashkilotchilar ma’lum harakatni amalga oshirishi evaziga moddiy manfaat oladi.

3. Moliyaviy suiiste’mol va byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish – ayniqsa katta turnirlar (masalan, Olimpiada, Jahon chempionati) uchun ajratilgan mablag‘lar noqonuniy o‘zlashtiriladi.

4. Noqonuniy transferlar va yollashlar – yosh sportchilarni noqonuniy usullarda xorijiy klublarga olib chiqib sotish, hujjatlarni soxtalashtirish.

5. Siyosiy manipulyasiya – ba’zi mamlakatlarda sport siyosiy “PR” vositasiga aylanadi, bu esa sport tashkilotlari ustidan bevosita siyosiy nazoratni kuchaytiradi.

6. Kiberkorrupsiya – raqamli platformalarda sportchilarning ma’lumotlarini manipulyasiya qilish, onlayn pul tikish tizimlarini buzish va boshqalar.

Albatta, raqamli texnologiyalarning sportga kirib kelishi bir tomondan ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlasa, boshqa tomondan yangi korrupsion imkoniyatlarni ham paydo qilmoqda. Onlayn garov tikish platformalari, kriptovalyuta orqali moliyaviy operatsiyalar, sun’iy intellekt asosidagi manipulyasiyalar sohada korrupsiyani aniqlashni murakkablashtirmoqda. Ayniqsa, kiberxavfsizlik zaif bo‘lgan davlatlarda sport tashkilotlari texnologik manipulyasiyalarga nisbatan himoyasiz bo‘lib qolmoqda.

Masalan, 2015-yilda FIFA rahbariyatiga qarshi ochilgan global tekshiruv butun jahon futbolining boshqaruv darajasidagi korrupsiyani ochib berdi. Olimpiya o‘yinlari uchun mezbon davlatni tanlash jarayonida ham turli noqonuniy bitimlar bo‘lgani

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

aniqlangan. Bunday holatlar sportga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi, sportchilar va tomoshabinlar orasida adoladsizlik hissini kuchaytiradi.

Shu bois, raqamli asr sportdagi halollikni ta’minlash uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bugungi kunda quyidagi texnologiyalar sportda korrupsiya xavfini kamaytirishda qo‘llanilmoqda:

– ochiq ma’lumotlar platformalari sport federatsiyalari va klublarning moliyaviy hisobotlari, homiylik shartnomalari, transfer summalari kabi ma’lumotlar raqamli portalda e’lon qilinishi orqali fuqarolik nazorati amalga oshirilmoqda. Masalan, Yevropa futbol klublari UYeFA talabiga ko‘ra yillik byudjet hisobotlarini internetda ochiq e’lon qiladi.

– “Blokcheyn” texnologiyasi sport klublari va federatsiyalarning moliyaviy harakatlarini amalga oshirishga tadbiq qilinib, ularni ochiq va shaffof yuritishga imkon bermoqda;

– sun’iy intellekt yordamida garov tikishdagi g‘ayrioddiy statistik o‘zgarishlar tahlil qilinib, oldindan ogohlantirish tizimi amalga oshirilmoqda;

– “Big Data” orqali musobaqalar va sportchilarning faoliyati doimiy monitoring qilinib, shubhali xatti-harakatlar aniqlanmoqda;

– elektron kontraktlar (smart contracts) yordamida sport transferlari va bitimlari blokcheyn orqali yuritilib, manipulyasiyalar ehtimoli keskin kamaymoqda;

– elektron axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilib, xalqaro sport tashkilotlari o‘rtasida korrupsion jinoyatlar haqida tezkor va xavfsiz axborot uzatish imkoniyati yaratilmoqda;

– elektron ovoz berish tizimlari esa sport tashkilotlaridagi saylovlar, qaror qabul qilish mexanizmlarining raqamli ko‘rinishda amalga oshirishga imkoniyat yaratib, inson omilini keskin kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni sport sohasida samarali antikorrupsion vosita sifatida qo‘llayotgan davlatlar mavjud bo‘lib, unga Estoniya[6], Singapur[7], Daniya[8] kabi mamlakatlarlagi sport boshqaruvida blokcheyn va ochiq ma’lumotlar tizimi muvaffaqiyatli joriy etilganligini ko‘rsatish mumkin.

AQSHda esa sportdagi korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy javobgarlik va sud amaliyoti asosiy vosita sifatida ko‘riladi. Shu bois, AQSHda Federal qidiruv byurosi sport korrupsiyasi bilan bog‘liq ishlarni, ayniqsa kelishilgan o‘yinlar, doping, noqonuniy garov tikish va sportchilarning shaxsiy hayotiga noqonuniy aralashuv holatlarini bevosita nazoratga olgan[9].

Shuningdek, Germaniyada sportdagi korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, 2015-yilda “Sportdagi dopingga qarshi kurashish to‘g‘risida” maxsus qonun qabul qilingan[10]. So‘ngra 2017-yilda Germaniya jinoyat kodeksiga sportchilar, murabbiylar va boshqalar tomonidan o‘yin natijalarini soxtalashtirganlik uchun jinoiy javobgarlik kiritilgan. Shu

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bilan birga, Germaniyada Milliy antidoping agentligi (NADA) faoliyat yuritadi va sport tashkilotlarining moliyaviy va axloqiy faoliyatini baholovchi mustaqil kengashlar tuzilgan. Shuningdek, Bundestagda sportdagi shubhali harakatlarni parlament nazorati ostida tahlil qiluvchi Parlament komissiyasi tashkil etilgan[11].

Buyuk Britaniyada sport sohasidagi korrupsiya, ayniqsa professional futbol va ot poygalari sohalarida yillar davomida katta muammo bo‘lib kelgan. Hozirda mamlakatda “Bribery Act 2010” asosiy antikorrupsiya qonuni bo‘lib, u sportga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri taalluqlidir. Mamlakatda sportdagi halollikni ta’minlash uchun alohida ixtisoslashtirilgan tuzilmalar yaratilgan. Bu tashkilotlar sportda manipulyasiya, onlayn garov tizimlaridagi firibgarliklarni aniqlash hamda klub boshqaruvidagi manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bilan shug‘ullanadi[12].

Shu kabi, Ispaniyada sportdagi korrupsiyaga qarshi kurash 2010-yilda qabul qilingan sportda firibgarlik va natijalarni manipulyasiya qilish bo‘yicha qonun bilan alohida jinoyat sifatida tan olishdan boshlangan. Shu bilan birga, Ispaniyada har bir sport federatsiyasi “etika komissiyasi”ga ega bo‘lishi majburiyligi belgilangan[13].

Avstraliyada 2011-yildan boshlab sportda shubhali garov tikishlarni aniqlash bo‘yicha “Sport Integrity Australia” agentligi faoliyat yuritib, sun’iy intellekt yordamida o‘yinlardagi koeffisiyentlar o‘zgarishini real vaqt rejimida kuzatish ishlarini amalga oshiradi[14].

Albatta, raqamli vositalar korrupsiyani aniqlashda juda foydali bo‘lsa-da, ularni samara bilan qo‘llashda bir qancha axloqiy va institusional muammolar ham mavjud:

Birinchidan, u tashkilotlar ichida qarshilikka sabab bo‘lib, ko‘plab sport federatsiyalari ichida raqamli nazoratga nisbatan sun’iy to‘siqlarni yuzaga keltirib chiqaradi. Ayniqsa, ochiqlik va moliyaviy shaffoflik talab etiladigan platformalar ichki manfaat to‘qnashuviga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, texnologik savodsizlik bo‘lib, ayrim mamlakatlarda sport rahbarlari yoki tashkilotlar texnologiyani chuqur anglamasligi sababli korrupsiyaga qarshi vositalarni joriy qilish sekin kechadi. Bu ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan muammo hisoblanadi.

Uchinchidan, huquqiy bo‘shliqlar bo‘lib, u ko‘plab davlatlarda sportda raqamli korrupsiyaga oid jinoyatlar alohida ajratilmagan, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan bo‘ladi. Masalan, kriptovalyutada pora berish yoki onlayn shantaj harakatlariga oid normalar mavjud bo‘lmaydi.

To‘rtinchidan, axborot xavfsizligi masalalari bo‘lib, u elektron tizimlar orqali yuritiladigan sport jarayonlarining zaif himoyasiga aylanib, kiberhujumlar ta’siriga uchraydi. Bu xavfsizlik inqiroziga olib keladi va korrupsiyani yengillashtiruvchi muhitga xizmat qiladi.

Shu boisdan, zamonaviy texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish sportda korrupsiyaga qarshi kurashishda qudratli vositaga aylanishi uchun sport federatsiyalari va klublarda raqamli axborot tizimlarini

joriy etish, har yillik moliyaviy faoliyatni ochiq e’lon qilishga majburiy bo‘lgan huquqiy talablarni kiritish, sport etikasi va axloqi bo‘yicha doimiy onlayn kurslar, ayniqsa murabbiylar, hakamlar va rahbarlar uchun joriy etish, kiberxavfsizlikka oid strategiyalarni ishlab chiqish, anonim xabar berish tizimlarini raqamli platformalarda yaratish va ishonchli himoya kafolatlarini yaratish lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari, tomoshabinlar, jurnalistlar va fuqarolik jamiyati vakillarining faol ishtiroki ham sohada korrupsiyaga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, onlayn platformalar orqali qonun buzilishlar haqida anonim xabar berish, ommaviy monitoring qilish va ochiq ma’lumotlardan foydalanish sportni adolatli qilish yo‘lidagi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Barcha ilg‘or texnologiyalar va xalqaro yondashuvlarga qaramay, sportdagi korrupsiyani ildizi bilan yo‘q qilish uchun eng asosiysi qat’iy siyosiy iroda, mustahkam huquqiy asos, mustaqil ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan, sportda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun, eng avvalo, sohada korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini belgilash, sport boshqaruvida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish tizimini joriy etish hamda sportchilar va rasmiy shaxslar uchun axloq kodeksini ishlab chiqish va muntazam odob-ahloq bo‘yicha treninglar tashkil qilish muhim hisoblanadi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, mazkur yondashuvlar xalqaro hamjamiyatda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan va ularni milliy qonunchilikka hamda amaliyotga moslashtirish sportni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni o‘z vaqtida joriy qilish va ular ustidan samarali nazorat sportni korrupsiyadan xoli muhitga aylantirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham sport sohasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish, shu jumladan raqamli texnologiyalar va sun’iy intelekt imkoniyatlari samarali joriy etish orqali korrupsiya omillarini bartaraf etishga katta e’tibor qaratib kelinmoqda.

Bu borada barcha tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rilib, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka va amaliyotga joriy etish ishlari jadal olib borilmoqda.

Jumladan, 24 ta yo‘nalishdagi axborot tizimlarini o‘z ichiga olgan “ERP Sport” yagona elektron boshqaruv tizimi ishlab chiqilib, uning doirasida O‘zbekiston chempionatlari (kuboklari)ning barcha bosqichlari bilan bog‘liq hujjatlarni, hakamlar, trener-o‘qituvchilar, yo‘riqchi-uslubchilar, sportchilar pasportini va ular to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni, kadrlar faoliyatini, inventarlar va jihozlar hisobini, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlarini, hududlararo reytingli baholashni, pullik xizmatlar ko‘rsatilishini, sport-ta’lim muassasalarida qabul va o‘quv jarayonlarini, sportchi yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya)ni, davlat xizmatlarini, davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar taqsimlanishi va ishlatilishi va ular bo‘yicha hisobotlarni, byudjetdan tashqari mablag‘lar tushumlarini raqamlashtirish imkoniyatlarini

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yaratish nazarda tutildi[15].

Shuningdek, 2024-yil 4-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining 988-sonli Qonuni asosida Jinoyat kodeksiga sport sohasida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan muhim yangiliklar kiritildi. Mazkur qonun orqali sportdagi firibgarlik, kelishilgan o‘yinlar, natijalarni manipulyasiya qilish, pora berish va olish holatlariga huquqiy baho berishning aniq mexanizmlari shakllantirildi. Jinoyat kodeksiga yangi qo‘shilgan 214^1-214^2-moddalari sport musobaqalari jarayonida va natijalariga ta’sir ko‘rsatish maqsadida moddiy yoki mulkiy manfaat ko‘zlangan har qanday harakatlarni jinoyat deb tan oladi va ularga nisbatan jazo choralarini belgilaydi[16].

Qonunchilikka kiritilgan ushbu yangi mexanizmlar O‘zbekistonda sport sohasi ham korrupsiyaga qarshi kurash jarayonidan chetda qolmayotganining yaqqol isbotidir. Zero, qonunchilikda sport sohasidagi korrupsiya ilk bor alohida jinoyat tarkibi sifatida tan olinmoqda. Bu nafaqat sportda halollik va adolatni ta’minlash, balki xalqaro sport maydonlarida mamlakat nufuzini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy qadamlardan biridir.

Biroq raqamli texnologiyalarning sportda korrupsiyani butunlay yo‘q qilishi emas, balki uni boshqariladigan darajaga tushirishi mumkinligini unutmaslik kerak[17].

Zero, bugungi global raqamli davrda sport sohasi insoniyat madaniyatining ajralmas qismiga aylangan. U millat va elatlar orasidagi do‘stlikni mustahkamlaydi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiladi, yoshlarga ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Ammo, ayni paytda, aynan shu soha korrupsiyaning nozik va ko‘zga ko‘rinmas tarmog‘iga ham tushib qolgan. Sportdagi korrupsiya oddiy moliyaviy jinoyat emas – u butun jamiyatga, yoshlar ongiga, milliy va xalqaro ishonchga zarba beradi.

Shu bois, sport tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish, korrupsiyaga qarshi preventiv choralarni yanada kuchaytirish, yosh sportchilar uchun halollik madaniyatini targ‘ib etish, ochiqlik va shaffoflikni oshirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, sportdagi korrupsiya – bu yakkama-yakka kurash emas. Bu global xavf bo‘lib, unga qarshi kurashda har bir davlat, xalqaro tashkilot, sport federatsiyasi, jurnalist va eng asosiysi – sportchilarning o‘zi hamkorlikda harakat qilishi lozim. Halol sport muhitini yaratish – bu kelajak avlodning ishonchini saqlab qolish, jamiyatda adolat g‘oyalarini mustahkamlash, va nihoyat, sportni asl mohiyatiga – halollik, jasorat va hamjihatlikka qaytarish demakdir.

Фойдаланилган адабиётлар

1. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/36.

2. https://www.worldbank.org/en/publication/digital-progress-and-trends-report.

3. Sh. Mirziyoyev. «Korrupsiyaga qarshi butun jamoatchilik bilan kurashishimiz zarur» – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz maqolasi, https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/28/corruption/

4. https://www.cambridge.org/core/journals/asian-journal-of-comparative-law/article/ comparative-case-study-of-matchfixing-laws-in-singapore-australia-germany-and-switzerland/BC0264E22FA129 A852C350332FD1AAC7
5. Sugden, John & Tomlinson, Alan. (2016). Football, Corruption and Lies: Revisiting Badfellas the book FIFA tried to ban. 10.4324/9781315545615.
6. https://ec.europa.eu/digital-building-blocks/sites/pages/viewpage.action?pageId=533365155
7. https://cryptobettingsingapore.com/crypto-sports-singapore/
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Play_the_Game_%28NGO%29
9. https://www.fbi.gov/investigate/transnational-organized-crime/integrity-in-sports-and-gaming
10. https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_antidopg/englisch_antidopg.html
11. https://www.cambridge.org/core/journals/asian-journal-of-comparative-law/article/comparative-case-study-of-matchfixing-laws-in-singapore-australia-germany-and-switzerland/BC0264E22FA129 A852C350332FD1AAC7
12. https://www.lawinsport.com/topics/gambling-law/item/tackling-match-fixing-a-look-at-the-uk-s-new-anti-corruption-plan
13. https://www.csd.gob.es/es/federaciones-y-asociaciones/federaciones-deportivas-espanolas/codigo -de -buen-gobierno-de-las-federaciones-deportivas
14. https://docslib.org/doc/9384057/4-5-australias-national-policy-on-match-fixing-in-sport
15. reestr.uz/en/projects/1467?type=passport
16. Ўзбекистон Республикасининг “Спорт соҳасида коррупциянинг олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги 04.11.2024 йилдаги ЎРҚ-988-сон Қонуни, https://lex.uz/uz/docs/7191590.
17. Nils Köbis, Artificial Intelligence as an Anti-Corruption Tool (AI-ACT) Potentials and Pitfalls for Top-down and Bottom-up Approaches, https://www.researchgate.net/publication/349546498